

## **"RAVZAT US-SAFO" ASARIDA TEMURIYLAR DAVRI TARIXINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI**

**Maxmudov Kalimullo Mas'ud o'g'li**

Hidoya o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

E-mail: [Maxmudovkalimullo01@gmail.com](mailto:Maxmudovkalimullo01@gmail.com)

Tel: 995406633

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21126058>**

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Mirxondning mashhur tarixiy asari "Ravzat us-safo fi sirat al-anbiyo val-muluk val-xulafa"da Temuriylar davri tarixining yoritilishi manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarning yaratilish sharoiti, muallifning ilmiy-uslubiy yondashuvi, foydalanilgan tarixiy manbalari hamda Temuriylar sulolasi haqidagi ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi o'rganilgan. Shuningdek, "Ravzat us-safo"ning Temuriylar davri tarixini tadqiq etishdagi ilmiy ahamiyati va boshqa tarixiy manbalar bilan o'zaro qiyosiy tahlili yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Ravzat us-safo, Mirxond, Temuriylar, Amir Temur, Shohrux, Husayn Boyqaro, tarixshunoslik, manbashunoslik, Xuroson, tarixiy manbalar*

***Аннотация:** В данной статье с источниковедческой точки зрения анализируется освещение истории эпохи Тимуридов в известном историческом труде Мирхонда «Равзат ас-сафа фи сират ал-анбия ва-л-мулук ва-л-хулафа». Исследуются условия создания произведения, научно-методологический подход автора, использованные исторические источники, а также степень достоверности сведений о династии Тимуридов. Кроме того, раскрываются научное значение «Равзат ас-сафа» в изучении истории Тимуридов и результаты сравнительного анализа с другими письменными историческими источниками.*

**Ключевые слова:** *Rawzat as-safa, Mirxond, Тимуриды, Амир Темур, Шахрух, Хусейн Байкара, историография, источниковедение, Хорасан, исторические источники*

**Abstract:** *This article presents a source-based analysis of the representation of the Timurid period in "Rawzat al-Safa fi Sirat al-Anbiya wa al-Muluk wa al-Khulafa", the renowned historical work of Mirkhwand. The study examines the historical context of the work's composition, the author's methodological approach, the historical sources employed, and the reliability of the information concerning the Timurid dynasty. Furthermore, the article highlights the scholarly significance of Rawzat al-Safa for the study of Timurid history and provides a comparative source analysis with other historical chronicles.*

**Keywords:** *Rawzat al-Safa, Mirkhwand, Timurids, Amir Timur, Shah Rukh, Husayn Bayqara, historiography, source studies, Khurasan, historical sources*

## KIRISH

Temuriylar davri Markaziy Osiyo va Xuroson tarixining eng yuksak taraqqiyot bosqichlaridan biri bo‘lib, siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, ilmfan, madaniyat va san’atning ravnaq topishi bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘rin egallaydi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr davomida Amir Temur hamda uning avlodlari tomonidan barpo etilgan qudratli davlat nafaqat harbiy-siyosiy salohiyati, balki ilmiy va madaniy yuksalishi bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, Samarqand va Hirot shaharlari Sharq uyg‘onish davrining yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylangan bo‘lib, bu yerda tarix, adabiyot, me'morchilik, astronomiya va boshqa fanlar jadal rivojlandi.

Temuriylar davri tarixini ilmiy jihatdan tadqiq etishda yozma manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrga oid voqealarni yorituvchi mahalliy va xorijiy tarixchilarning asarlari tarixiy haqiqatni tiklash, siyosiy jarayonlarni tahlil qilish hamda davlat boshqaruvi tizimini o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Temuriylar saroyida yoki ularga yaqin muhitda yashab ijod

qilgan tarixchilarning asarlari davr voqealarini bevosita kuzatgan yoki ishonchli ma'lumotlarga tayangan holda yozilgani bilan ilmiy qimmatga ega.

Shunday muhim tarixiy manbalardan biri XV asrning mashhur tarixchisi Mirxond tomonidan yaratilgan **"Ravzat us-safo fi sirat al-anbiyo val-muluk val-xulafa"** asaridir. Ushbu ko‘p jildli tarixiy asar islom tarixini payg‘ambarlar davridan boshlab muallif yashagan zamongacha bo‘lgan voqealarni izchil va tizimli ravishda bayon etuvchi universal tarix hisoblanadi. Asar o‘zining keng qamrovi, tarixiy voqealarni ketma-ketlikda yoritishi, turli manbalarga tayanganligi hamda ilmiy uslubining mukammalligi bilan Sharq tarixshunosligining eng yirik namunalaridan biri sanaladi.

"Ravzat us-safo"ning Temuriylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan qismlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Unda Amir Temurning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, davlatni boshqarish tamoyillari, shuningdek Shohrux Mirzo, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlarning siyosiy faoliyati, ichki va tashqi siyosati, diplomatik aloqalari hamda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, asarda ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va tasviriy san'at taraqqiyoti, saroy muhitidagi ilmiy-ma'rifiy faoliyat ham keng aks ettirilgan. Bu esa asarni faqat siyosiy tarix manbasi emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixni o‘rganishda ham muhim manbaga aylantiradi.

Mirxond o‘z asarini yaratishda undan avvalgi tarixiy manbalar, rasmiy hujjatlar, og‘zaki rivoyatlar hamda saroy muhitida mavjud bo‘lgan tarixiy ma'lumotlardan keng foydalangan. Shu sababli "Ravzat us-safo" keyingi davr tarixchilari, jumladan Xondamir va boshqa muarrixlar uchun ham asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Asarning tarixiy qiymati uning voqealarni tizimli yoritishi, shaxslar faoliyatiga xolisona baho berishga intilishi hamda ayrim voqealar yuzasidan boshqa tarixiy manbalarni to‘ldiruvchi ma'lumotlarni o‘z ichiga olishi bilan belgilanadi.

**Temuriylar tarixining yoritilishi.** Mirxondning **"Ravzat us-safo"** asari Temuriylar sulolasi tarixini o‘rganishda eng muhim yozma manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Amir Temur va uning avlodlari faoliyati nafaqat siyosiy voqealar ketma-ketligi sifatida, balki davlat boshqaruvi, harbiy san’at, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan va madaniyat rivoji bilan uzviy bog‘liq holda yoritilgan. Muallif voqealarni bayon etishda tarixiy faktlarni axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirib, hukmdor shaxsining fazilatlarini davlat ravnaqi bilan chambarchas bog‘laydi. Shu jihatdan asar nafaqat tarixiy ma'lumotlar majmuasi, balki o‘z davrining siyosiy-ma'naviy qarashlarini aks ettiruvchi muhim tarixnavislik yodgorligi sifatida ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asarning asosiy e'tibor markazida buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning siyosiy faoliyati turadi. Mirxond Temurning hokimiyat tepasiga kelish jarayonini, Movarounnahr hududida tarqoqlik va ichki nizolarga barham berish yo‘lida olib borgan kurashlarini batafsil bayon qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, Amir Temurning asosiy maqsadi markazlashgan va mustahkam davlat barpo etish bo‘lgan. Shu sababli u turli qabila va mahalliy hukmdorlarni yagona siyosiy markaz atrofida birlashtirishga intilgan. Bu jarayonda Temurning qat'iy siyosiy irodasi, harbiy iste'dodi va uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati alohida ta'kidlanadi.<sup>103</sup>

Mirxond Amir Temurning harbiy yurishlarini ham keng yoritadi. Xuroson, Eron, Iroq, Kavkaz, Hindiston, Oltin O‘rda hamda Kichik Osiyoga uyushtirilgan harbiy yurishlar nafaqat g‘alabalar ketma-ketligi sifatida, balki davlat xavfsizligini ta'minlash, savdo yo‘llarini nazorat qilish va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan strategik tadbirlar sifatida izohlanadi. Ayniqsa, Anqara jangidagi g‘alaba, To‘xtamishxon bilan olib borilgan kurashlar hamda Samarqandning qudratli imperiya markaziga aylanishi muallif tomonidan yuksak baholanadi. Biroq Mirxond voqealarni ko‘proq saroy tarixchiligi ruhida bayon

<sup>103</sup> Jumayev G.I. “Audiomanuscript” – a project on the study of oriental manuscript sources. // *Journal of Social Research in Uzbekistan*, 2023. – P. 50–52.

qilgani sababli Temurning harbiy yurishlari oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy va demografik talafotlar haqida batafsil ma'lumot bermaydi. Bu esa asarning manbashunoslik tahlilida tanqidiy yondashuvni talab etadigan jihatlardan biri hisoblanadi.<sup>104</sup>

Asarda Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlari ham alohida o‘rin egallaydi. Muallif hukmdorning adolatni qaror toptirish, soliqlarni tartibga solish, harbiy boshqaruvni takomillashtirish, davlat idoralarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini e'tirof etadi. Samarqandning obodonlashtirilishi, me'morchilik inshootlarining bunyod etilishi, bog'lar, madrasa va masjidning qurilishi Temurning bunyodkorlik siyosatining yorqin namunasi sifatida ko'rsatiladi. Muallif nazarida kuchli davlat faqat harbiy qudrat bilan emas, balki adolatli boshqaruv, iqtisodiy taraqqiyot va ilm-fan rivoji bilan ham mustahkamlanadi.<sup>105</sup>

Mirxond Amir Temur shaxsiga baho berar ekan, uni adolatli, dono, qat'iyatli va xalq manfaatini ko'zlagan hukmdor sifatida tasvirlaydi. Temur faoliyatidagi siyosiy muvaffaqiyatlar ko'pincha uning shaxsiy fazilatlarini bilan izohlanadi. Bunday yondashuv o'rta asr musulmon tarixnavisligiga xos bo'lib, hukmdor obrazini ideal darajaga ko'tarish orqali davlat boshqaruvi uchun namunaviy timsol yaratishga xizmat qilgan. Shu bois "Ravzat us-safo"dagi Temur obrazi tarixiy haqiqat bilan bir qatorda muallifning siyosiy qarashlari va saroy tarixchiligi an'analarning ham mahsuli hisoblanadi.

Asarda Shohrux Mirzo hukmronligi Temuriylar davlatining eng barqaror davrlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Mirxond Shohruxni otasi asos solgan davlatni mustahkamlagan, ichki tinchlikni ta'minlagan va iqtisodiy taraqqiyotga katta e'tibor qaratgan hukmdor sifatida baholaydi. Uning davrida savdo-sotiq rivojlanib, Buyuk

<sup>104</sup> Mirkhondning “Ravzat us-safo” asarida Jaloliddin Manguberdi zikri. / Mas’ul muharrir M. Xayrullayev. So‘zboshi va tabdil muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 4.

<sup>105</sup> Jumayev G.I. Oq qo‘yunli etnonimining etimologiyasi. // *Scholar Scientific Journal*. Volume 1, Issue 34. December, 2023. – P. 85–90.

Ipak yo‘li orqali xalqaro iqtisodiy aloqalar yanada kengaydi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va shaharsozlikning taraqqiy etgani haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Muallif mamlakatda siyosiy barqarorlik hukm surganligi ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishiga qulay sharoit yaratganini alohida ta'kidlaydi.

Shohrux davrida Hirot shahri musulmon Sharqining yirik ilmiy va madaniy markaziga aylangani ham asarda batafsil yoritilgan. Mirxond olimlar, shoirlar, xattotlar va san'atkorlarning faoliyatini e'tirof etib, hukmdorning ilm ahliga ko'rsatgan homiyiligini yuqori baholaydi. Ayniqsa, madrasalar, kutubxonalar va ilmiy muassasalarning rivojlanishi mamlakatning ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qilgan omillar sifatida ko'rsatiladi.

Husayn Boyqaro hukmronligi esa Mirxond tomonidan Temuriylar davri madaniy yuksalishining eng yuqori bosqichi sifatida tavsiflanadi. Muallif ushbu davrni ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilikning ravnaq topgan davri deb hisoblaydi. Ayniqsa, Hirotning Sharq uyg'onishining yirik markaziga aylanishi, saroyda ilm-fan vakillariga yaratilgan sharoitlar va ijodkorlarga ko'rsatilgan e'tibor alohida qayd etiladi. Bu davrda tarixnavislik, tasviriy san'at, musiqa va adabiyotning rivojlanishi Temuriylar davlatining yuksak madaniy salohiyatini namoyon etadi.

Mirxond Alisher Navoiy faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Navoiy davlat arbobi, buyuk mutafakkir va ma'rifatparvar sifatida tavsiflanib, uning ilm-fan, adabiyot va xayriya ishlari yo'lidagi xizmatlari yuksak baholanadi. Muallif Navoiy tomonidan qurdirilgan madrasalar, masjidlar, xonaqohlar va boshqa bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumot berib, ularni jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim omillari sifatida ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar Temuriylar

davridagi madaniy muhitni, davlat va ilm-fan o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni hamda hukmdorlar va ziyolilar hamkorligini o‘rganishda alohida ilmiy ahamiyatga ega.<sup>106</sup>

Umuman olganda, "**Ravzat us-safo**" asarida Temuriylar davri tarixi siyosiy voqealar bilan cheklanib qolmay, davlat boshqaruvi, harbiy san'at, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan, madaniyat va ma'naviy hayotning uzviy rivojlanishi bilan bog‘liq holda yoritilgan. Muallif voqealarni o‘z davrining tarixiy tafakkuri va tarixnavislik an'analari asosida bayon qilgan bo‘lsa-da, asarda keltirilgan ma'lumotlar Temuriylar tarixini manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishda bebaho ilmiy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, undagi ma'lumotlarni boshqa zamondosh manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish tarixiy voqealarning haqqoniyligini aniqlash va Temuriylar davrining siyosiy hamda madaniy taraqqiyotini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

### **XULOSA**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Mirxondning "**Ravzat us-safo**" asari Temuriylar davri tarixini o‘rganishda eng muhim va ishonchli yozma manbalardan biri hisoblanadi. Asarning Temuriylar sulolasiga bag‘ishlangan qismlarida Amir Temur va uning vorislarining siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi tizimi, harbiy yurishlari, diplomatik aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda ilm-fan va madaniyat rivoji izchil va batafsil yoritilgan. Muallif voqealarni bayon etishda tarixiy ketma-ketlikni saqlagan holda, hukmdorlar faoliyatiga keng o‘rin ajratgan va ularning davlat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berishga harakat qilgan.

Manbashunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, "Ravzat us-safo" o‘zining mazmuni, tuzilishi va foydalanilgan manbalarning xilma-xilligi bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mirxond o‘zidan oldingi tarixiy asarlar, rasmiy hujjatlar, saroy an'analari hamda zamondoshlarining ma'lumotlariga tayangan holda Temuriylar davri tarixini umumlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Shu sababli asar keyingi davr

<sup>106</sup> Mirxond, Muhammad ibni Khovandshoh ibni Mahmud. *The History of "Ravzat us-Safa"*. Vol. 10. – Tehran, 1339/1960. – 631 p.

tarixchilari, jumladan Xondamir va boshqa muarrixlar uchun ham muhim asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Biroq asarni ilmiy tadqiq etishda uning yaratilgan siyosiy va mafkuraviy muhitini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Muallifning Temuriylar saroyiga yaqin bo‘lgani ayrim hukmdorlar faoliyatining ideallashtirilishi, ayrim siyosiy voqealarning esa biryoqlama talqin qilinishiga olib kelgan. Shu bois "Ravzat us-safo"dagi ma'lumotlarni boshqa zamondosh yozma manbalar, arxiv hujjatlari, epigrafik yodgorliklar va arxeologik topilmalar bilan qiyosiy tahlil qilish tarixiy haqiqatni yanada aniqroq tiklash imkonini beradi. Bunday yondashuv manbaning ishonchlilik darajasini baholash va undagi tarixiy axborotning ilmiy qiymatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, "Ravzat us-safo" faqat siyosiy tarixni emas, balki Temuriylar davridagi davlat boshqaruvi, diplomatik munosabatlar, ijtimoiy hayot, ilm-fan, madaniyat va ma'naviy muhitni o‘rganishda ham muhim tarixiy manba hisoblanadi. Asarda keltirilgan ma'lumotlar Temuriylar davrining ko‘plab tarixiy jarayonlarini izohlash, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda davrning umumiy tarixiy manzarasini tiklashda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Mirxondning "Ravzat us-safo" asari Temuriylar davri tarixini tadqiq etishda o‘zining tarixiy va manbashunoslik qiymatini bugungi kunda ham saqlab qolmoqda. Asarni zamonaviy tarixshunoslik va manbashunoslik metodlari asosida chuqur o‘rganish, uni boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish hamda ilmiy muomalaga kengroq jalb etish Temuriylar davri tarixining kam o‘rganilgan jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat milliy tarixshunoslikning rivojlanishiga, balki jahon tarix fanida Temuriylar davri bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ilmiy asoslarini yanada boyitishga muhim hissa qo‘shadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirkhondning **“Ravzat us-safo”** asarida Jaloliddin Manguberdi zikri. / Mas’ul muharrir M. Xayrullayev. So‘zboshi va tabdil muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 4.
2. Jumayev G.I. “Audiomanuscript” – a project on the study of oriental manuscript sources. // *Journal of Social Research in Uzbekistan*, 2023. – P. 50–52.
3. Jumayev G.I. Oq qo‘yunli etnonimining etimologiyasi. // *Scholar Scientific Journal*. Volume 1, Issue 34. December, 2023. – P. 85–90.
4. Jumayev G.I. Boyondurlar: tarixi va etimologiyasi. // *Educational Research in Universal Sciences*. Volume 2, Issue 17. December, 2023. – P. 215–219.
5. Jumayev G.I., Doniyorov A.X. va boshq. *History of the Study of “Temur Tuzuklari” (Temur’s Regulations or Temur’s Laws)*. // *New York Academic Research Congress on Social, Humanities, Administrative, and Educational Sciences Proceedings Book*. – Turkiye, 2024. – P. 972–975.
6. Ishoqov M.M., Jumayev G.I. “Habib us-siyar” va “Matla us-sa’dayn” asarlarida diplomatik va elchilik munosabatlarining aks ettirilishi. // *Sharqshunoslik / Vostokovedeniye / Oriental Studies*. 2022. №1. – Toshkent. – B. 120–132.
7. Mirkhond, Muhammad ibni Khovandshoh ibni Mahmud. *The History of “Ravzat us-Safa”*. Vol. 10. – Tehran, 1339/1960. – 631 p.
8. Mirkhond, Muhammad. *Ta’rikhi Ravzat us-Safo fi Siratil Anbiyo val Muluk val Khulafa* [Matn] / M. Mirkhond; tashih va tahshiya Jamshidi Kayonfar. J. 1. – Tehran: Intishoroti Piruz, 1338. – 812 b.
9. Jumayev G.I., Norqulov I.J., Doniyorov A.X., Karimov N.R. *Boburnomada Qora qo‘yunlilar hukmdori Jahonshoh haqidagi ma’lumotlar*. // **“Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur Merosi – Mo‘tabar Madaniy Manba”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I-qism. – Toshkent, 2024. – B. 319–322.

10. Jumayev G.I. *Temuriy hukmdor Shohrux Mirzo davrida Temuriylar va Qoraqo‘yunli orasidagi munosabatlarining manbalardagi tavsifi. // 2nd International Azerbaijan Congress on Life, Social, Health, and Art Sciences. August 13–14, 2022. Congress Proceedings Book. ISBN: 978-605-73228-1-4. 2022.*

11. Jumayev G.I. *Temuriy Sulton Ahmad Mirzoning “Boburnoma” va boshqa manbalardagi tavsifi. // International Istanbul Congress Proceedings Book. 2022.*